

O'ZBEK TILIM-IFTIXORIM

Farg'onan viloyati Farg'onan tumani

35-umumiy o'rta ta'lif maktabi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Maxkamova Gulnora Jumaboyevna

Til – inson qalbining ko'zgusidir. Unda nafaqat inson qalbi, balki o'sha xalqning o'tmishi, buguni, kelajagi, madaniyati va boshqa bir qancha jihatlari ham aks etib turadi. Bejizga biz til so'ziga ona so'zini egizak qilib aytmaymiz. Shuning uchun ham biz uni onamizdek qadrlashimiz, e'zozlashimiz, saqlashimiz va kelajak avlodga sof holda etkazishimiz lozim. Til insonning libosidir. Bu libosni qanday kiyish har bir insonning o'ziga bog'liq. Ba'zi insonlar oddiy libosni ham go'zal qilib, yarashtirib kiyadi. Ba'zi insonlarda esa har qanday go'zal libos o'z ko'rkini yo'qotadi. Til – qalb tarjimoni. Chunki har bir so'z, eng avvalo, qalb torlarida chertiladi. So'ngra so'zlarda jilolanib tinglovchiga etkaziladi.¹ Til millatning ongi va xotirasi, ruhiyati, ma'naviy qiyofasi, tashqi olamga munosabatining in'ikosidir. Millat, davlat, jamiyat taraqqiy qilar ekan, uning ona tiliga bo'lgan e'tibori va mehri kuchaya boradi. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Xar bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurgan oyinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmatli so'zлari ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. ² "O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar", - Abdulla Qodiriy.Darhaqiqat, ona tilimiz kambag'al emas, balki uni kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Chunki ona tilimiz o'zining lug'at boyligiga ega. Tarix guvohki, mana bir necha ming yillardan beri ona tilimiz hanuzgacha o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'zbek tilining eng ahamiyatli jihat shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Jonajon tilimiz, shoir Mirtemir aytganidek, yoshligimizdanoq jon-u qulog'imizga singib ketgan. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobo-buvilarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o'z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg'otgan. O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z ona

tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e'zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqada qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: "Til – millat ko‘zgusi", - deyishmaydi. 1989 yil 21 oktyabr. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinib, o‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lgan ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yildi. Shu tariqa o‘zbek tili davlatimizning bayrog‘i gerbi, madhiyasi kabi qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzlari qatori e’zoz va ehtiromga sazovor bo‘ldi. Keyingi yillarda Davlat tilining ijtimoiy hayotda tutgan mavqeini yana-da mustahkamlash maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo‘linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Bundan ko‘zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha takliflar tayyorlash, o‘zbek tilining yozma matni me’yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat.³

Ona tiliga muhabbat Vatanga bo‘lgan muhabbatdir.

"Davlat tiliga bo‘lgan e’tibor mustaqillikka bo‘lgan e’tibor, davlat tiliga ehtirom va sadoqat ona Vatanga ehtirom va sadoqatdir!", - Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Ona tili – millatning ruhidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demak. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog‘i, gerbi, madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga aylandi.

Tarixga nazar solsak, Ona tilimiz – o‘zbek tiliga 1989 yil 21 oktyabrdagi davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Agar o‘sanda til to‘g‘risida qonun qabul qilinmaganda edi, o‘zbek tili ham tarix saxifalaridan joy olgan bo‘larmidi?!. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tiliga

davlat tili maqomining berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘lgan edi. Istiqlol yillarda mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilimiz taraqqiyotida ham muhim o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbek tilining xalqaro miqyosda obro‘sni oshdi. Shukrkim, milliy tilimizga bo‘lgan e’tibor va hurmatni Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqida yana bir bor tarixiy ahamiyat kasb etdi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Eng buyuk qudrat ona tildadir. Yana bir bor Yurtboshimiz o‘z xalqiga bo‘lgan mehr-muhabbatini namoyon etdi. Bu muhabbat ona tilga, Vatanga bo‘lgan muhabbatdir. Shu aziz Vatanda yashayotgan fuqaro borki, har qachongidan ko‘ra o‘zbek tiliga bo‘lgan yuksak iftixor va e’tiborni ich-ichidan his etib turibdi. Darhaqiqat, til madaniyat ko‘zgusi va ruhimizning qanoti ekan, biz ona tilimiz orqali xalqlar, millat va elatlar orasida hamisha aziz-u mukarram ekanligimizni aslo unutmasligimiz kerak. O‘zbekona lutf, muomala, milliy qadriyatlar, odob-axloq esa ona tilimiz madaniyatining kalitidir.

Zero, shoir aytganidek:

Mayli, kim qay tildan zavqu shavq olsa,

Mening o‘z tilimga ming jonim fido.

Erta ona tilim agar yo‘qolsa,

Men bugun o‘lishga bo‘lurman rizo.

Shu o‘rinda yurakdan otilguvchi yana bir sado bizni yuksaklik sari chorlaydi.

QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM!5

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.<https://yuz.uz/uz/news/ona-tili--millat-ruhi>

2.<https://adu.uz/uz/news/article/589>

3.<https://www.xviib.uz/oz/news/tarihimsan-tadirimsan-kelazhagimsan-ona-tilim>

4.<https://uzeltech.uz/uz/ozbek-tili-bayrami/>

5.<https://uzeltech.uz/uz/ozbek-tili-bayrami/>